

O'ZBEKISTON BO'YLAB SAYOHAT



Lola o'rtoqlari bilan sayohatga boradi

Bir kuni o'qituvchi Lola va uning sinfdoshlariga ajoyib xushxabar aytib qoldi:

– Ota-onalaringiz sizlarni sayohatga olib borishni taklif qilishyapti. O'zbekistonning istalgan viloyatini tanlasangiz bo'ladi.

– Biz hech qayerga bormaganmiz-ku! Qanday qilib tanlaymiz? – so'radi Lola.

– Bugun uyga borib, ota-onangiz, bobo-buvilaringiz bilan maslahatlashing. Ular qayerlarga borgani, qanday qiziqarli joylarni ko'rganini so'rang. Ertaga shunga qarab, boradigan joyimizni tanlaymiz.

Ertasiga darsdan keyin hamma to'planib, ota-onasidan, uydagilardan eshitganlarini aytib bera boshladi. Ba'zilar telefonga olingan suratlarni ham olib kelibdi. Hamma qiziqib, qayerga borishni maslahat qila boshladi.

– Ko'ryapsizlarmi, ko'pchilik Samarqand, Buxoro va Xivaning suratlarni olib kelibdi. Negaligini bilasizlarmi? – so'radi o'qituvchi.

– Chunki bular – O'zbekistonning eng mashhur, eng qadimiy shaharlari. Shuning uchun u yerga butun dunyodan sayyohlar oqib keladi, – dedi Olim.

– To'g'ri. Xo'sh, yana kim unchalik mashhur bo'lmasa ham, lekin qiziqarli joylarni biladi?

Hamma baravar qo'l ko'tardi. O'qituvchi buni ko'rib, xursand bo'ldi:

– Qani, navbat bilan aytinglar-chi? – dedi u.

Bolalar biri olib, biri qo'yib gapira boshlashdi:

– Shahrisabzdagi baland Oqsaroy. Unga chiqqan odam osmonga chiqqanday bo'ladi!

– Surxondaryodagi Kampirtepa! U yerdagi shaharni Aleksandr Makedonskiy qurdirgan deyishadi.

– Mo'ynoqqa borish kerak! U yerda qurigan Orol dengizi o'rnida qumga botgan kemalar bor.

– Orol dengizining qolgan qismini ham ko'rsa bo'ladi. Faqat Ustyurt tomonga uzoq yurish kerak.





Hoji Bog'bon ota



Oqsaroy



Baday-To'qay qo'riqxonasi



Xonbandi to'g'oni



Chilpiq qal'a



Shohruxiya

– Amudaryoda Baday-To'qay qo'riqxonasi bor. U yerda bug'ular yashar ekan. Odamdan qo'rqmay, bemalol yaqin kelarkan! Zo'r-a?

– Buxoro qo'riqxonasidagi jayronlarni ham ko'rsa bo'ladi.

– Xo'sh, yana qanday chiroyli joylar bor? Kim biladi?

– Samarqanddan Shahrisabzga ketishda Qoratepa tog'i bor. Yerdan chiqqan qoratoshlar har xil hayvonlarga, odamlarga o'xshaydi. Hamma borib, o'sha joyda rasmga tushib keladi.

– Borsakelmas degan ko'l bor. U yerda suvning o'rniga tuzda cho'milsa bo'lar ekan. Dadam aytganlar, bunaqa tuz konlari dunyoda atigi o'ntagina ekan.

– Qashqadaryoda ham chiroyli joylar ko'p. Mirakida baland tog'lar, daryolar bor. Ayiqlar, bo'rilar yuradi.


– Jizzaxda-chi, tog'da Hoji Bog'bon ota maqbarasi bor. Tog'ga chiqib qarasangiz, bir tomonda sapsariq cho'l, bir tomonda ko'm-ko'k Aydarko'l ko'rinadi. Men rasmlarini ko'rganman, juda chiroyli!

Shu payt o'qituvchi savol berdi:

– Xo'sh, yana qanday, tarixiy joylar bor? Kim biladi?

– Men! – dedi Sanjar. Uning dadasi tarixchi edi. – Zarafshon tog'ida Langar degan qishloq bor. U yerda arablarning avlodi yashaydi. O'sha qishloqda ming yillik Mus'haf bor. Olimlar buni yaqinda aniqladi.


– To'g'ri, bu voqea butun dunyoda shov-shuv bo'ldi.




Orol dengizi



Qirqqiz qal'asi



Qoratepa tog'i

**Kampirtepa****Langar****Fayoztepa**

– Dadam Surxondaryoga borganida, Fayoztepa degan joyda qadimiy ehromlarni ko'ribdi. Ular xuddi cho'ldagi labirintga o'xshar ekan.

– Chilpiqqal'ada ham tarixiy joylar bor. Xuddi fantastik kinodagi qal'aga o'xshaydi.

Shundan keyin o'qituvchi O'zbekistondagi mashhur qadimiy yodgorliklar, ziyoratgohlarni ham so'radi.

O'quvchilar darrov javob berishdi:

– Qizilqum cho'lining chekkasida Ayoqzal'a degan joy bor. Bu qal'a tepalikda joylashgan. Borsak, cho'lining o'rtasidagi o'tovlarda yotsak bo'ladi.

– Termizda Qirqqiz degan ajoyib qal'a bor. Paxsadan qilingan, lekin nihoyatda chiroyli, yerosti yo'llari, peshtoqlari bor.

– Bolalar, poytaxtimiz atrofida ham qiziqarli joylar bor-ku! Nahotki hech kim bilmasa? – dedi o'qituvchi.

– Toshkentga yaqinroq joyda, Sirdaryoning baland qirg'og'ida Shohruxiya shahrining qoldiqlari bor. Uni Amir Temur qurdirib, o'g'lining nomi bilan atagan. U yerda ilgari kemalar yurgan, bandargoh bo'lgan ekan.

Nihoyat, gapirish navbatı Lolaga keldi. U qo'lida tutib turgan ikkita tog' o'rtasidagi tosh devorning rasmini ko'rsatdi:

– Mana, Forish shahri yonidagi Xonbandi degan joy. Ming yil oldin



qurilgan qadimiy to'g'on. Akam aytdilarki, u yerga O'zbekistondan ham juda kam odam borgan ekan.

– Barakalla, qizim. Bu rasmlarni olib kelib, juda yaxshi qilibsan, – dedi o'qituvchi.

– Bunchalik yaxshi saqlangan qadimiy to'g'onlar butun dunyoda nari borsa beshtagina chiqsa kerak. O'shalardan bittasi – Xonbandi. Biz u bilan faxrlansak arziydi.

Bolalar, "Birinchi bo'lib Forishga boraylik, o'sha ajoyib to'g'onni ko'raylik! Yo'lda Shohruxiyaga kirib, Hoji Bog'bon otani ham ziyorat qilib kelsak bo'ladi", deb o'qituvchidan iltimos qila boshlashdi.

Lola esa "O'zbekiston bo'ylab har yili sayohat qilishimiz kerak ekan, axir shuncha ajoyib joylar bor!" deb o'yladi.



Bolalar sayohat qilish uchun O'zbekistondagi 20 ta joyning nomini aytishdi. Ulardan eng borigingiz kelgan uchtasining nomini ayting.



Oila a'zolaringizdan O'zbekistonning qaysi joylariga borganini so'rang. Bu joylarning ro'yxatini tuzib, sinfdoshlaringizga gapirib bering.




Qo'riqxonalar



O'zbekistonda juda ko'p tabiat qo'riqxonalari mavjud. Bunday qo'riqxonalar yaratishdan maqsad atrof-muhitni, hayvonot va o'simlik olamini muhofaza qilishdir. Shulardan eng kattalari Hisor davlat qo'riqxonasi, Nurota va Zarafshon davlat qo'riqxonalaridir.



***O'zbekistondagi juda ko'p tabiiy obyektlar
UNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.***




Qo'riqxonalar nima uchun kerak? Qo'riqxonada yurishning ham tartib-qoidalari bormi? Bu tartib-qoidalarining buzilishi qanday oqibatlarga olib keladi?


Hayvonot olami




O'lkamizda turli xil jonivorlar yashaydi. Yo'qolib yoki kamayib borayotgan noyob hayvonlar "Qizil kitob"ga kiritilgan. Davlatimiz hayvonot olamini saqlab qolish uchun zarur choralarni ko'radi.



Tabiatni asrab-avaylash uchun qilgan xatti-harakatlarimiz atrof-muhitga, hayvonot va nabotot olamiga zarar yetkazmasligi lozim.



Lolalar bahor, go'zallik va hayot ramzi bo'lgan eng chiroyli gullardir.



Qulasa – Tyan-Shan tog'larining eng go'zal daryolaridan biridir. O'zbekiston hududida bu daryoning nihoyatda chiroyli sharsharalari bor.



1. O'zbekiston tabiatining go'zalligidan zavqlaning. Bu surat sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otdi?
2. "Inson – tabiatning bir qismidir" jumlasini qanday tushunasiz?
3. Sizni hayratga solgan joylar yoki hodisalarni eslang.